



## JAMIYAT HAYOTIDA PEDAGOGNING MAQOMI TA'LIM, IMTIYOZLAR VA NATIJA

*Ashurova S.A*

*Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

**Tayanch soʻzlar:** „pedagogning maqomi“ toʻgʻrisidagi qonun, TALIS, Konstitutsiya, Finlandiya, imtiyoz, kasb, davlat, taʼlim-tarbiya.

**Ключевые слова:** закон о статусе учителя, ТАЛИС, Конституция, Финляндия, привилегия, профессия, государство, образование .

**Key words:** act on the status of a teacher, TALIS, Constitution, Finland, privilege, profession, state, education.

Oʻtmishdan to hozirgacha har bir mamlakat taraqqiyotida pedagog-oʻqituvchining hissasi beqiyos. Ajdodlarimizning pedagogik qarashlari, taʼlim-tarbiyani isloh qilish yoʻlidagi xizmatlari necha asrlardirki, jamiyat insonlariga oʻrnak boʻlib kelyapti. Hayotda oʻqituvchi kasbining tutgan oʻrni, uning mavqye, majburiyati, vazifasi har bir millat kelajagining yorqin koʻzgusidir. Shu kabi masalalarni inobatga olgan holda yurtimiz va xorijiy davlatlarda pedagogik faoliyatga qanday baho berilayotganligi, insonlar orasida oʻqituvchi shaxsiga nisbatan mavjud fikrlar har bir davrda oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Ayni damda mamlakatlar hayotida pedagogning maqomi qanday va taʼlim tizimiga qaratilgan eʼtibor, mavjud imtiyozlar, natija samaradorligi qay darajada yuksalayotganini koʻrib chiqamiz.

Yaqin yillargacha oʻqituvchilar faoliyatida turli xildagi muammolarning yuzaga kelishi, ja-miyat insonlarining baʼzi qatlamlari oʻqituvchining haq-huquqini cheklashi, turli tashkilotlar tomoni-dan majburiy mehnatga jalb qilinishi taʼlim sohasida isloh qilinishi kerak boʻlgan vazifalarning ba-jarilishiga toʻsiq boʻlib kelayotgan edi. Bu kabi bir qator muammolarga chek qoʻyibgina, millat maʼnaviyatini yuksaltirish, ilm-fan sohasida koʻzlangan natijalarga erishish mumkinligini bilgan Pre-zidentimiz Sh. Mirziyoyev bir nechta qonuniy hujjatlarni qabul qildi. Xususan, „2018-yilda oʻqituvchi-pedagoglarni majburiy



mehnatga jalb etish ta'qiqlandi"[1]. Pedagogning vazifasi jismoniy mehnatni bajarish emas, balki yosh-avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish ekanligiga asosiy urg'u qara-tildi. Ta'limni samarali tashkil qilish uchun kerakli sharoitlar yaratildi. Barcha ta'lim tashkilotlarida ta'lim turlari: „Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash"[2] yuzasi-dan tubdan islohotlar olib borildi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida pedagogning huquqlari xalqaro miqyosda himoya qilinib kelinyapti. Bu borada „1966-yil 5-oktabrda Parijda „O'qituvchining maqomi bo'yicha maxsus xalqaro konferensiya" bo'lib o'tgan va UNESCO tashkiloti tomonidan 5-iyulda „O'qituvchilar maqomi to'g'risida"gi tavsiyalar qabul qilindi. Ko'pgina mamlakatlarda 1994-yildan boshlab har yili 5-oktabr UNESCO tavsiyasi bilan o'qituvchilar kuni si-fatida nishonlanadi"[3]. O'zbekistonda bu bayram birinchi Prezidentimiz I. Karimovning „O'qituvchi va murabbiylar kunini belgilash to'g'risida"gi 1996-yil 1-dekabr 367-1-son qarori bilan 1-oktabr sanasida nishonlanib kelinmoqda"[4]. Jahonning barcha mamlakatlari o'qituvchilarning ped-agogik faoliyatini nazorat qilib boruvchi TALIS xalqaro baholash dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ush-bu dastur rahbar va pedagog xodimlarning ta'lim natijalarini baholaydi. Yurtimiz ham ushbu dasturn-ing keyingi davriyligida qatnashishni rejalashtirgan.

O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularni o'z farzandidek sevib ulg'aytiradi, turli mashaqqatlarga matonatli bo'lishda, ma'naviyatining boyishi, tarbiyasining kamol topishida o'rnak bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilarning xizmatini e'tirof etish, ularga qulay shar-sharoit yarat-ish, pedagogik faoliyatni mustaqil olib borishi uchun Prezidentimiz farmoni bilan „2024-yil 1-fevralda „Pedagogning maqomi" to'g'risidagi 21 moddadan iborat qonun imzolandi"[5]. Bu hujjat-da pedagoglarning imtiyozlari va majburiyatlari, vazifalari va mas'uliyatlari, ijtimoiy huquqlari qat'iy tarzda belgilanib qo'yildi. Qonunga ko'ra pedagog ilmiy-tadqiqot ishlarini erkin olib borishi, hech qanday omil yoki shaxslar uning huquqlariga daxl qilishi mumkin emas. Hujjatda pedagoglar tibbiy ko'rikdan majburiy va davlat hisobidan to'lovlarsiz- bepul o'tishi, istalgan hollarda muddatidan oldin malaka toifasini oshirish huquqiga ega ekanligi va shunga o'xshash qarorlar qabul qilindi. To'g'rirog'i ushbu hujjat o'qituvchining manfaatlari va majburiyatlarini o'zida mujassam etgan huquqiy maqom hisoblanadi. Shu o'rinda N.Kanayevning quyidagi fikrini keltirishni joiz deb bildik: „Inson huquqlari o'qituvchining huquqlaridan boshlanadi. Agar o'qituvchi huquqsiz bo'lib, zo'rg'a kun kechirayotgan bo'lsa, u Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini yoddan bilgan taqdirda ham hech qachon o'z



shogirdlariga, kelajak avlodga inson huquqlariga bo'lgan ishonchni yetkaza olmaydi"[6]. Haqiqatan, insonni o'qimishli qilib tarbiyalovchi kasb egalari bu o'qituvchilar. Agar o'qituvchi o'z huquqlarini to'laqonli bilsa, ta'lim berayotgan o'quvchilariga ham ularning huquq va majburiyatlari haqida bilim bera oladi. So'ngi yillarda yurtimizda pedagoglarning huquqi asosiy qonunimizda ham mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra o'qituvchiga konstitutsiyaviy maqom berildi. Mazkur Konstitutsiyaning 52-moddasida o'qituvchi haq-huquqlari o'z ifodasini topdi. Bu borada Jizzax davlat pedagogika instituti rektori Shavkat Sharipov quyidagicha fikr bildiradi: „Eng muhimi - yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchilar alohida e'tirofda. Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi bo'lmagan, lekin oddiy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalari aylandi"[7].

Millat ravnaqini rивonlantiruvchi, uning ijtimoiy ongini o'stiruvchi pedagoglar teran fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas, tajribali va yangiliklarga qiziquvchan bo'lsa, o'sha xalq aholisi ham shunday ijobiy odatlar bilan kamol topadi. O'qituvchi kasbi ulig'langan Vatanda shogirdning ustozga, farzandning ota-onaga, kichikning kattaga, yoshlarning keksalarga hurmati eng yuksak darajaga yetadi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ham o'qituvchilik kasbining o'ziga yarasha talablari va imtiyozlari bor. Masalan, ta'lim tizimida eng yuqori o'rinni egallagan Finlandiya davlatida har bir o'qituvchi magistr darajasiga ega bo'lishi lozim, shu bilan birga ota-onalar farzandlarining fanlarni o'zlashtirishida o'qituvchilarga ishonishadi. Vazifalar „asosan, maktabda dars davomida bajariladi, uyga topshiriqlar deyarli berilmaydi. „Finlandiyada o'qituvchilarga madaniyatni mamlakatning har bir burchagiga olib boradigan odamlar sifatida qarashadi. O'qituvchilik jamiyatdagi eng yuqori mavqega ega bo'lgan kasblardan bir"[8]. O'qituvchilarga o'z kamchiliklarini to'g'rilash uchun im-koniyat beriladi, ya'ni davlat o'qituvchining har tomonlama o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.

Yer yuzida ta'limni targ'ib qiluvchi shaxslar - bu o'qituvchi-pedagoglardir. Ustozlardan sho-gidrlarga o'tib kelgan bilimlar natijasida kelajak avlod zehni bo'lib ulg'ayadi. Yosh-avlod o'z kasbining salohiyatli xodimi bo'lib yetishishida, ilmi, aql-u shijoatli bo'lib tarbiya topishida, bevosita o'qituvchining o'rni katta. Shunday faxrli kasb egasi bo'lgan kamtarin ustozlarimiz ta'lim-tarbiyasi, nasihat-u o'g'itlari yillar davomida aqlimizni charxlab, mushohada yuritishga, eng maqbul qarorlarni qabul qilishimizga yordam beradi. Inson hayotida ota-onadan keyingi eng yaqin do'st - bu o'qituvchi bo'lsa kerak, chunki hech ahamiyat berganmisiz, barcha o'qituvchilar siz o'quvchilariga yaxshi bo'lsin deydi. Yomon odatlaringiz bo'lsa tanbeh beradi, biror yutuqqa erishganingizda



sizdan-da quvonadi, eng samimiy tilaklarini-da sizga yo‘llaydi. Hech bir o‘qituvchi o‘quvchilariga yomonlikni istamaydi. O‘qituvchilarim bilan uchrashganimda ularning ko‘zlaridagi mehrni, yuzidagi samimiy tabassumini va menga nisbatan bildirilgan ishonchni ko‘rib, behad quvonaman. Shunday chin insoni-ylik hislatlarini o‘zida mujassam qilgan ustozlarning shogirdi ekanligimdan cheksiz faxrlanaman, qal-bim sevinchdan ilhom oladi. Bu kabi sobitqadam insonlar ulug‘langan yurtida iymon va e‘tiqod, ilm va ma‘rifat birga o‘sib-ulg‘ayadi, ko‘zlangan maqsadlar amalga oshadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, o‘qituvchi maqomining himoya qilinishi, hurmatining o‘z o‘rniga qo‘yilishi insonlar o‘rtasidagi o‘zar munosabatlarning risoladagidek shakllanishiga yordam beradi. O‘qituvchi har bir zamonda qadrlanib kelgan sharafli kasb egasi, zero, uning sha‘ni, qadr-qimmati hamisha e‘tirof etilishi shart. Ilm-ma‘rifat taratguvchi, adolat mezonini belgilab beruvchi o‘qituvchilar kasbiga 1-Prezidentimiz I. Karimov shundan ta‘rif beradi: „Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharafli o‘qituvchilik va murabbiylikdir“.

#### Adabiyotlar:

1. Furqat Alimardon „Pedagoglar huquqlarini himoya qilish: biz va dunyo“ maqolasi.
2. N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanova „Umumiy pedagogika“, „Fan va texnologiya“ nashriyoti Toshkent-2012.
3. I.Karimov „O‘qituvchilar va murabbiylar kunini belgilash to‘g‘risida“gi 367-1-son qarori.
4. Sh.Mirziyoyev „Pedagogning maqomi“ to‘g‘risidagi 901-son O‘zbekiston Respublikasi qonuni.
5. N. Kanayev „UNESKO hukumatlararo konferensiyasi“da so‘zlagan nutqidan.
6. Sh.Sharipov „O‘zbekiston talabasi“ jurnali (5-bet).
8. Grigoriy Petrov „Oq nilufarlar yurtida“, „Factor press“ nashriyoti, Toshkent-2021 (25-54-bet)

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yurtimiz va chet elda ta‘lim fidoyilari bo‘lmish- o‘qituvchilarning pedagogik maqomi qay darajada himoya qilinayotgani, o‘qituvchi sha‘ni, qadr-qimmati va jamiyat hayotida uning tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье размышляется о том, насколько защищен педагогический статус учителей переданных образованию в нашей стране и за рубежом, честь, ценность и роль учителя в жизни общества.

#### SUMMARY

This article reflects on the extent to which the pedagogical status of teachers who are devoted to education in our country and abroad is protected the teacher’s honor, value and role in the life of the society.